


# MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC – METHODOLOGICAL JOURNAL



## MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC – METHODOLOGICAL JOURNAL

<http://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/index>



### DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH ART CENTERS

**Sardar S. Botirov**

*Master's student*

*Termiz State Pedagogical Institute*

*Termiz, Uzbekistan*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** creativity, Centers, visual art, character, natural materials, sand, watercolor.

**Received:** 01.04.23

**Accepted:** 03.04.23

**Published:** 05.04.23

**Abstract:** Creative ability is a characteristic that distinguishes a person from an animal. This ability can not only apply to and use a person throughout his life, but can also change his appearance. Understanding children's creativity and its specific aspects requires educators to have a lot of knowledge. The educator must be able to answer questions about what kind of character this activity has in art, what tools the artist is using to create an artistic image, what are the stages of his creative activity. In the process of getting to know the surrounding world, children reflect them in their activities, namely in their games, drawings, clay works, stories, etc. In pictorial activities, children try to depict the impressions they receive from the world around them, the emblems in their imagination using different materials and clear shapes. In children's creativity, at the initial stage of creative activity, there are specific character traits. These include their active and independent participation in the application of previously mastered methods of work in a new way, solving the tasks ahead through new methods, expressing their feelings using various means.

#### KIRISH

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas. «Ijod» so‘zining lug‘aviy ma’nosи: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so‘zlariga monand keladi.

## ASOSIY QISM

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob’ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo‘lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan , texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi1 :

- tafakkurning mustaqilligi;
- o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo‘limgan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamlashning (topqirlikning) tezligi;
- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqr kirib borish orqali muhim bo‘limgan narsadan muhimini ajrata bilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mashhg‘ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do‘stona munosabatda bo‘lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berish tavsiya etiladi. O‘yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.

Tashhisning maqsadi bolaning qaysi turiga ko‘proq mos kelishi va u qanday tasavvur paydo bo‘lganligini aniqlashdir. Bu maxsus testlarni o‘tkazadigan psixologlar yordamida amalga oshirilishi mumkin, natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘yinlarni tanlash mumkin. Shuningdek, bolaning imkoniyatlarini mustaqil ravishda aniqlash, unga turli tadbirlarni taqdim etish va eng qiziqarli sabablarni kuzatish mumkin. Qanday tasavvur paydo bo‘lganini ham belgilab oling, o‘yinda xatti-harakat bilan ham mumkin. Yuqori darajadagi hayoliy tasvirlarni ishslash qobiliyatini ko‘rsatadi, ularni birlashgan tasvirlar yoki sub'ektlardan kompilyatsiya

qilish mumkin. Ammo, boshlang‘ich darajasidan qat’iy nazar, tasavvurlar organizmning mushaklari kabi mashq qilinadi - muntazam mashqlar yordamida. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini ham mumkin va ularning asl qobiliyatidan qat’i nazar, rivojlanadirish kerak.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etgan holda bunday mashg‘ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo‘yishi shubhasizdir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg‘ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma’lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda qo‘yidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san’at sohasiga doir qobiliyatlarini aniqlanadi va shakllantiriladi;
- qalam, mo‘yqalamni ushslash, loy, plastilin bilan ishslash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo‘l mushaklari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o‘tira olishni o‘rganadi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganadi;
- jamoa bo‘lib mehnat qilish, ishni rejalahtira olish, o‘rtoqlarini eshitita olish va o‘zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishslash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladi va ularni o‘z ishlarida ifodalashga o‘rganadi.

Ijodkorlik qobiliyatiinsonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob’ektiv qonunlari asosida o‘z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongingin faol mahsulidir. "Maktabgacha ta’lim konsepsiysi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste’dodini rivojlanadirish vazifasi belgilab berilgan. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta’lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko‘rish tufayli bola o‘yinchoq yasashdan oldin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta —sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta’siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llarini o‘rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarini kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlaridan, o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotlanligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko‘rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti — harakatlarini ma’qulaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o‘xshagan ishlarni bajaradi. Mashg‘ulotda har doim ham bir xildagi o‘yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg‘ulot oldidan bolalarning ruhini ko‘taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she’r o‘qib berishimiz, qo‘sinq aytib berishimiz, topshiriqlar bo‘yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim

San‘at markazi bolalarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va amalga oshirishga rag‘batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo‘yoq, qog‘oz, qaychi, bo‘rchalar, qalamlar, gazlama bo‘laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog‘och, barg, qum-tuproqni ham qo‘sib qo‘yish foydadan xoli emas. Markazdag‘i mashg‘ulotlar ijodiy qobiliyat, so‘z orqali va so‘zsiz muloqot, umumiylar va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo‘lgan qiziquvchanligini rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o‘z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlar uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so‘ng, qaysidir ko‘nikmalarga alohida e‘tibor berish uchun ishlab chiqiladi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markaz faoliyatlarida bolalarga quyidagilar o‘rgatiladi - muammolarni eta olish; - ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish; - odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni. Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: «Fan»2006 yil, 298b.
2. Egamnazarova Sh. M. —Tarbiyaviy ishlar metodikasi|| Ilim ziyo T.: 2016y. 3. O‘quv qo‘llanma.
4. —Ilk qadam|| davlat o‘quv dasturi. -T.: 2022 yil.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha ta‘limda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022yil.